



**БИР БЎЛСАК – ЯГОНА ХАЛҚМИЗ, БИРЛАШСАК – ВАТАНМИЗ!
МУСТАҚИЛЛИГИМИЗНИНГ 33 ЙИЛЛИГИ МУБОРАК БЎЛСИН!**



Vaziyat

Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш асосий вазифамиздир!

2024 йил
29 август
№ 35 (976)



Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги нашри

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган



ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИ

Бухоро ҳамда Навоий вилоятларида Фавқулодда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев ва ҳар икки вилоят ҳокимлари иштирокида қўмондонлик-штаб ўқув машғулотлари ўтказилди.

Мазкур машқлар давомида 2024 – 2025 йиллар куз-қиш мавсумига тайёргарлик кўриш, уни беталафот ўтказиш, энергетика ҳамда газ тизимини барқарор ишлашини таъминлаш, аҳоли ва иқтисодиёт тармоқларига электр энергияси ва газ ресурсларини етказиб беришда содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш бўйича бир қатор амалий ишлар бажарилди. Аҳолини юзага келган вазиятлардан хабардор этиш, жабрланганларга тиббий ёрдам кўрсатиш, аҳолини хавфсиз ҳудудларга тезкорлик билан кўчириш ишларини ташкиллаштириш ва аҳолини тўғри ҳаракат қилишга ўргатиш бўйича зарур кўникмалар берилди.

Тадбирда қайд этилганидек, қўмондонлик-штаб ўқув машғулотлари табиий ва техноген хусусиятдаги фавқулодда вазиятлар ҳамда бошқа ҳолатларда аҳолининг ҳаракатланиши, ҳодисалар оқибатини бартараф этишда кўриладиган чора-тадбирларни тарғибот қилиш мақсадида ташкил этилади. Ўқув машғулотларида ана шу жараёнлар амалий кўрсатилиб, ҳамкор ташкилотларнинг тайёргарлик ҳолати кўздан кечирилди.

Қолаверса, А.Қўлдошев Навоий шаҳридаги Маънавият ва маърифат марказида ҳамда Бухоро шаҳрида жойлашган Мономарказда тизимда хизмат олиб бораётган ёш ҳарбий хизматчилар ва хизматчилар, оталиққа олинган ёшлар, жамиятда юқори натижаларга эришган йигит-қизлар, спортчилар, фан олимпиадаси ғолиблари, “Ёш қутқарувчи” кўнгилчилар клуби аъзолари билан учрашди.

Ушбу тадбирлар давомида соғлом, баркамол авлодни тарбиялаш, уларни мамлакатда амалга оширилаётган сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий ислохотларнинг фаол ва бевосита иштирокчиси, жамиятнинг ҳақиқий таянчи, суянчига айлантуриш мамлакатимизнинг устувор ва стратегик вазифаларидан бири бўлиб келаётгани қайд этилди. Мустиқил фикрлайдиган, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат билан қарайдиган, ўзининг қатъий ҳаётий эътиқод ва қарашларига эга бўлган, “ҳалоллик вакцинаси” билан эмланган, миллий менталитетимизга ёт зарарли таъсирларга қарши туришга қодир ёшларни тарбиялашга қаратилган самарали

ишлар хусусида сўз юритилди.

Вазир ёшларнинг саволларига жавоб берар экан, Бухоро ва Навоий ёшларининг илғор ва шижоатли эканликларига яна бир бора ишонч ҳосил қилганлигини таъкидлади.



Учрашув якунида вазирлик тизимида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишда фаол қатнашиб келаётган, теран фикрлаши, билими, юксак интеллектуал салоҳияти билан тенгдошларига ўрناк бўлувчи, қолаверса, ёшлар билан ўтказилаётган жамоат тадбирларида фаол иштирок этиб келаётган бир гуруҳ ёшлар шахсан вазир қўлидан ташаккурнома ва эсдалик совғаларини қабул қилиб олдилар.

Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

Мудофаа вазирлигига қарашли ҳарбий қисмларнинг бирида “Коррупция — тараққиёт кушандаси” мавзусида ҳуқуқий тарғибот-профилактика тадбири ўтказилди.

КОРРУПЦИЯ — ТАРАҚҚИЁТ КУШАНДАСИ

Мулоқотда “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонун моҳияти, коррупциявий жиноятлар ва улар учун белгиланган жавобгарлик масалалари ҳақида сўз юритилди.

Таъкидланганидек, коррупция — шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатларини ёхуд ўзга шахсларнинг манфаатларини кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда фойдаланиши, худди шунингдек, бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этиш ҳисобланади.

Коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик коррупция аломатларига эга бўлган, содир этилганлиги учун қонунчиликда жавобгарлик назарда тутилган қилмишидир.

Жараёнда иштирокчилар ўзларини қизиқтирган саволларга атрофлича жавоб олдилар.

Бундан ташқари, Хоразм вилоят кўриқлаш бошқармасида “Бир бўлсак — ягона халқмиз, бирлашсак — Ватанмиз!” шиори остида маънавий-маърифий ташкил этилди.

Унда юртимизда, шу жумладан, Қуролли Кучларда амалга оширилган кенг қамровли ислохотлар, уларнинг моҳияти ҳақида ҳаётий мисоллар билан муфассал маълумотлар берилди.

Миркамол ҚҶЧҚОРОВ,

Урганч ҳарбий прокуратураси катта терговчиси, адлия капитани.

ҲУҚУҚИЙ ТАРҒИБОТ

Тошкент ҳарбий прокуратураси томонидан Қуролли Кучлар Академиясида ҳуқуқий тарғибот-профилактика тадбири ўтказилди.

Унда профессор-ўқитувчилар, офицерлар, сержантлар, курсант ва муддатли ҳарбий хизматчилар иштирок этди.

Мулоқотда ахборот-коммуникация технологиялари шиддат билан ривожланаётган ҳозирги даврда кибержиноятлардан, турли ёт ғоялардан огоҳ бўлиш борасида атрофлича маълумотлар берилди.

Яқунда иштирокчилар ўзларининг қизиқтирган саволларига атрофлича жавоб олдилар.

Камолитдин РҶЗМЕТОВ,

Тошкент ҳарбий прокуратурининг катта ёрдамчиси, адлия полковниги.



ДОЛЗАРБ МАВЗУ

Наманган тумани ФВ бўлими шахсий таркиби иштирокида “Коррупцияга қарши курашиш” мавзусида йиғилиш бўлиб ўтди.

Унда коррупция, тамагирлик ва суиистеъмолчиликларнинг олдини олиш ҳамда унга қарши курашиш, диний экстремистик оқимлар ва ёт ғоялар таъсиридан сақланиш, ахборот хавфсизлигига риоя этиш хусусида муҳим фикрлар баён этилди. Таваккалчиликка асосланган онлайн қимор ўйинларини ўйнамаслик, гиёҳванд ва психотроп моддалар муомаласига қарши курашиш, йўл ҳаракати қоидаларига риоя этиш, ҳарбий ва меҳнат интизомига қатъий амал қилиш зарурлиги тушунтирилди.

Абдураҳмон ҲАМИДОВ,

Наманган вилояти ФВ ШХБ бошлиғи, подполковник.

САЙЁР ҚАБУЛ

Навоий вилояти Учқудуқ тумани “Келажак ёшлар марказида” ташкил этилган ишсизликни камайтириш мақсадида Навоий ҳарбий прокурори полковник Ж.Ўринов бошчилигида сайёр қабул ташкил этилди.

Унда қўйи ташкилотлардан бандлик, соғлиқни сақлаш, солиқ идораси, банк ходимлари, ёнғин хавфсизлиги, миллий гвардия ва бошқа қатор идоралар раҳбарлари иштирок этдилар.

Қабулда турли хил муаммо ва ҳуқуқий масалаларга ечим излаб келган 100 дан ортиқ фуқаролардан 60 та мурожаат келиб тушди.

Мурожаатларнинг аксарияти соғлиқни сақлаш вакиллари ҳамда банк ходимларига бўлди.

Шу жумладан, Навоий ҳарбий прокурорига ҳарбий хизматчиларга дам олиш санаторияларига йўлланма ажратилиши фарзандларини давлат боғчасига қўйишда имтиёзлар бериш, имтиёзли ипотека кредитлари асосида уй-жой бериш ҳамда ҳарбий хизматчиларнинг фарзандлари ОТМга ки-



риш учун тавфсиянома беришга доир мурожаатлар келиб тушди.

Келиб тушган мурожаатларнинг 5 таси шу куннинг ўзида қаноатлантирилди.

Шунингдек, қабул жараёнида 3 нафар фуқаронинг мутахассислиги бўйича ишга жойлаштириш таъминланди.

Қолган 15 та мурожаат бўйича тегишли масъуллар бириктирилиб, уларнинг ижроси назоратга олинди.

Э.ДИЛМУРОДОВ,

Шимолий кон бошқармаси бўлини инспектори, оддий аскар.
И.ҚИЛИЧЕВ, оддий аскар

СЕРМАЗМУН МУЛОҚОТ

Самарқанд вилоятида ўтказилаётган “Ватанга содиқ ёшлар” ватанпарварлик ўқув йиғини доирасида “Ҳарбий прокурор ва ёшлар” учрашуви бўлиб ўтди.

ФВВ Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш марказида ўтган тадбирда Самарқанд ҳарбий прокурори, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги Академияси ва Марказ масъуллари иштирок этди.

Мулоқотда ватанпарварлик, бурчга садоқат, ҳарбий хизмат нуфузи, тинчлик қадри тушунчалари юзасидан ёшларнинг фикрлари тингланди.

Жараёнда мамлакатимизда ёшлар учун яратилган кенг ва тенг имкониятлар ҳақида атрофлича тушунтиришлар берилди.

Самимий руҳда кечган учрашувда ёшлар ўзларини қизиқтирган саволлар билан мурожаат этиб, масъуллардан атрофлича жавоблар олдилар.

Руслан ЛАТИПОВ,

Самарқанд ҳарбий прокуратурининг катта ёрдамчиси, адлия подполковниги.

ВАЪДАСИНИ УНУТГАН “УСТА”

Г.Абдураҳимов муқаддам фирибгарлиги учун судланган. Хавфли рецидивист. У ўзганинг мол-мулкни алдаш ва ишончли суиистеъмол қилиш йўли билан қўлга киритиш мақсадида 2023 йил 29 октябрь куни Миробод тумани, Янги Қўйлик, 5-уй 15-хонадонда яшовчи Э.Рустамовнинг уйига борган. 3.300 АҚШ доллари эвазига 2023 йил 20 ноябрь кунига қадар мебель жиҳозларини ясаб беришини ваъда қилган. Ундан дастлаб 2.800 АҚШ долларини фирибгарлик йўли билан қўлга киритиб, ваъда қилган мебель жиҳозларини ясаб бермасдан, пулларни шахсий эҳтиёжларига сарфлаб юборган.

Суд мажлисида Г.Абдураҳимов айбига тўлиқ иқrorлик билдирди. Э.Рустамовдан қарзи 2800 АҚШ долларини ташкил қилишини, суд мажлиси давомида жабрланувчи Э.Рустамовга (2800 АҚШ долларига тенг) 34.188.224 сўмни ташкил қилган миқдордаги моддий зарарни ҳақиқатда тўлиқ қоплаганлигини, қилмишидан пушаймонлигини, оқибатини тушуниб етганлигини, оилавий шароити ва



моддий аҳволини инobatга олиб, енгиллик беришни сўради.

Г.Абдураҳимовга жиноят ишлари бўйича Қуйичирчиқ туман судининг 2021 йил 27 мартдаги ҳукми билан тайинланган ва жиноят ишлари бўйича Оҳангарон туман судининг 2023 йил 25 июлдаги ажримига кўра, ЖКнинг 73-моддасига асосан муддатидан илгари шартли озод қилинган

2 йил 7 ой 25 кун озодликдан маҳрум қилиш жазо муддатини асосий тайинланган жазога қисман қўшиш йўли билан узил-кесил ўташ учун 3 (уч) йил муддатга озодликдан маҳрум қилиш жазоси тайинланди.

Нилуфар ДАДАБАЕВА,

Жиноят ишлари бўйича Миробод туман судининг судьяси.

“Бир бўлсак — ягона халқмиз, бирлашсак — Ватанмиз!” шиори остида Миллий гвардия Сурхондарё вилояти бўйича бошқармасида “Очиқ эшиклар” тадбири ўтказилди.

ОЧИҚ ЭШИКЛАР

Унда Термиз ҳарбий прокуратураси, Ёшлар иттифоқи, Ёшлар ишлари агентлиги ва қатор мутасадди ташкилотлар масъуллари иштирок этдилар.

Бириктирилган маҳаллалар ёшлари ўртасида турли спорт беллашувлари ташкил этилиб, ғолибларга совғалар улашилди.

Ҳарбийларнинг кўргазмали чиқишлари, ҳарбий ва махсус аслаҳалар намойиши барчада катта қизиқиш уйғотди.

Шунингдек, ёшлар билан мулоқотлар ташкил этилиб, ватанпарварлик, бурчга садоқат, ҳарбий хизмат нуфузи, тинчлик қадри тушунчалари юзасидан уларнинг фикрлари тингланди.

Далер РАҲМАТИЛЛАЕВ,

Термиз ҳарбий прокуратурининг ёрдамчиси, адлия катта лейтенанти.

МАВСУМГА ТАЙЁРГАРЛИК



Наманган тумани ФВ бўлими ҳарбий хизматчи ва хизматчилари томонидан “Кичик Тошбулоқ” МФЙ ҳудудидаги кўп қаватли уйлар ҳамда аҳоли яшаш хонадонлари, шунингдек, 26-касб-хунар мактабида дахлдор ташкилот ходимлари билан биргаликда куз-қиш мавсумига тайёргарлик, содир бўлиши мумкин бўлган ёнгин, чақнаш, исгазидан заҳарланишнинг олдини олиш бўйича профилактик тушунтириш ишлари олиб борилди.

Шунингдек, тумандаги 39-мактабда иш олиб борилаётган қурилиш ишчи ходимлари билан жараёнда техника ва ёнгин хавфсизлиги қоидаларига риоя қилиш юзасидан қўшимча йўриқномалар берилди.

Исломжон МЕЛИБОЕВ,

Наманган вилояти ФВБ ахборот хизмати етакчи мутахассиси.

Араббой МАДВАЛИЕВ,

Наманган тумани ФВ бўлими катта инспектори, лейтенант.

Яшнобод тумани ФВ бўлими инспекторлари ва 19-ЁҚҚ қутқарувчилари ва ҳамда қатор ҳамкор ташкилот вакиллари, “МАХСУС ТЕРМИНАЛ СЕРВИС” МЧЖ маъмурияти масъул ходимлари ҳамда ишчилари бошчилигида ёнгин-қутқарув автомобилларини жалб этган ҳолда омбор ҳудудида ўқув-амалий машғулоти ўтказилди.

ОМБОРДАГИ МАШҚ

Машғулот давомида ёнгин қутқарувчилари томонидан омбор ҳудудида содир бўлган фавқулодда вазият натижасида жабрланган фуқароларни олиб чиқиш, уларга биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш ҳамда фавқулодда вазият оқибатларини бартараф этиш бўйича амалий машғулоти ўтказилиб, ёнгин қутқарувчиларнинг маънавий ақлий ва жисмоний кўникмалари янада мустаҳкамланди.



А.ХАЙИТБОЕВ,

Яшнобод тумани ФВ бўлими инспектори, катта лейтенант.

Хоразм вилояти ФВБ томонидан оталиққа олинган ёшлар билан тизимли ишлаш ҳамда уларнинг бўш вақтларини мазмунли ўтказиш мақсадида, “Мен келажакман” шиори остида ўтказилаётган касблар танловига 2-сектор ҳудудидаги ёшлар ҳам жалб қилинди.

ФАОЛ ВОЛОНТЁРЛАР




Шунингдек, Боғот туманидаги “Хунарманд” маҳалласида истиқомат қилувчи оталиққа олинган ёшларга субсидия асосида асбоб-ускуналар жамланмаси олиб берилиб, ўз яшаш хонадонларида мебелчилик соҳасида ўз тадбиркорчилигини олиб боришларида амалий ёрдам кўрсатилди.

Бундан ташқари, фавқулодда вазиятларда тўғри ҳаракат қилиш бўйича ёшларнинг билим ва кўникмаларини ошириш мақсадида бошқарма Хаёт фаолияти хавфсизлиги ўқув марказида 5 кунлик 30 соатдан иборат “Фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш тарғиботчиси” ўқув-курсларида ўқитилиб, волонтерлар жамоалари кўнгилли равишда ижтимоий соҳа объектлари ва аҳоли хонадонларида куз-қиш мавсумини беталафот ўтказиш, ёнгин хавфсизлигини таъминлаш ҳамда кузатилиши мумкин бўлган турли фавқулодда вазиятларнинг барвақт олдини олиш бўйича профилактик тадбирларда фаол иштирок этдилар.

Хусусан, соҳа ходимлари билан биргаликда ёшлардан иборат волонтерлар жамоалари фуқароларга ишхона ва уйда носоз электр мосламаларидан фойдаланмаслик, суюлтирилган газ баллонларидан тўғри фойдаланиш, уйда ёш болаларни қаровсиз қолдирмаслик каби хавфсизлик қоидаларини ўргатишда ҳам фаол қатнашдилар.

Иззатбек ПАЛВАНОВ,

Хоразм вилояти ФВБ ҲФХЎМ бошлиғи, майор.



МАРКАЗДА...

ФВБ Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш марказида Самарқанд вилояти дезинфекциялаш станцияси ходимлари билан ҳамкорликда мукаммал дезинфекциялаш, дезинсекция ҳамда дератизация тадбирлари амалга оширилди. Эпидемиологик вазиятни барқарор ушлаб туриш ва кузги мавсум давомида турли юқумли касалликлар, жумладан, грипп ва бошқа ўткир респиратор инфекциялар билан касалланиш ҳолатларининг олдини олиш юзасидан тушунтириш тарғибот ишлари олиб борилди.

О.КАРОЕВ,

ФВБ Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш маркази тиббиёт хизмати бошлиғи, подполковник.

О.ЧОРШАНБИЕВ,

тиббиёт хизмати фелдъшери, кичик сержант.

ЭНГ ЯХШИ ЁШ КИТОБХОН

ФВБ тизимида “Энг яхши ёш китобхон – 2024” танловининг Республика босқичи ўтказилди.



Қашқадарё вилоятининг Шаҳрисабз шаҳридаги “Темурбеклар мактаби” ҲАЛда ташкил этилган тадбир давомида ҳудудий босқичда ғолибликни қўлга киритган 20 нафар ёш китобсеварлар “Ўзбек адабиёти билимдони”, “Жаҳон адабиёти билимдони”, “Буюк мутафаккир ва адиб” ва “Шеърят” каби шартлар бўйича ўзаро беллашдилар.

Тадбир ташкилотчиларининг қайд этишича, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 12 майдаги “Буюк алломалар, адиб ва мутафаккирларимиз ижодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш мақсадида ёшлар уртасида китобхонлик танловларини ташкил этиш тўғрисида”ги қарори асосида ўтказилаётган “Ёш китобхон” тан-

ловида ҳам буюк адиб ва мутафаккирларимизнинг нодир мероси, ибратли ҳаёти ҳамда ижтимоий фаолияти ҳар томонлама чуқур ўрганилиб, кенг миқёсда тарғиб этилмоқда.

Кўрик-танловга таъкидланганидек, мазкур танлов ёш ҳарбий хизматчилар уртасида китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш, буюк адибларимизнинг нодир меросини ўрганиш, ёшларни китоб мутолаасига қизиқтириш ҳамда маънавий-интеллектуал салоҳияти ва дунёқарашини янада юксалтиришга катта ҳисса қўшмоқда. Ёшларнинг барча қатламларини китоб ўқишга даъват этиш, ўқишга бўлган қизиқиш ва интилишларини қўллаб-қувватлаш, жойларда адабий муҳит шаклланишига эришиш, ўзликни англаш, навқирон авлодни миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялаш, улар уртасида китобхонлик маданиятини кенг оммалаштириш мақсадида мамлакатимизда китобхонлик танловларини ўтказиш аънамага айланиб улгурди.

Эътироф этилганидек, ёшларимизнинг зийрак, зеҳнли, билимли, интилувчан, дунёқарашлари кенг бўлиб вояга етишида ҳеч нарса китобнинг ўрнини боса олмайди. Бугун ёшларимизни турли ёт ғоялардан асраш учун китобга ошно қилиш энг тўғри йўл ҳисобланади. Бу борада нафақат ўқи-

тувчи ёхуд ота-она, балки бутун жамият қайғуриши лозим.

Танловда ҳар бир иштирокчи ўқиган асарларининг мазмун-моҳиятини тушунтирди. Мунозаралар китобхон тафаккурини янада оширишга хизмат қилди.



Қизгин ва баҳсларга бой ўтган мусобақа якуний натижаларига кўра 1-ўринни Навоий вилояти ФВБ ҳарбий хизматчиси оддий аскар Ризиматжон Жўраев эгаллаган бўлса, 2-ўрин ФВБ Академияси 4-босқич курсанти Сардор Избосаровга насиб этди. Бухоро вилояти ФВБ ҳарбий хизматчиси оддий аскар Рустам Умедов эса 3-ўринга муносиб кўрилди.

Мусобақа якунида, ғолиб ва совриндорлар диплом ҳамда қимматбаҳо совғалар билан тақдирландилар.

Анвар ҚОБИЛОВ.

YONG'IN — TILSIZ YOV!

Butun jahon yong'inlar statistikasi ma'lumotiga ko'ra, dunyoda soatiga o'rtacha mingta yong'in sodir bo'lib, 1 daqiqada 17 ta yong'in sodir bo'lar ekan, yong'in oqibatida 1 soatda o'rtacha 10 nafar inson halok bo'ladi, har 100 ta yong'inida 1 kishi halok bo'lar ekan.



FVV xodimlari tomonidan yong'inlarning oldini olish, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish bo'yicha ommaviy odamlar ko'p yig'iladigan maskanlarda, maktab, maktabgacha ta'lim muassasalari, shifoxonalar va aholi turar xonadonlarida uyma-uy yurib, fuqarolarga tushuntirish ishlari, ommaviy axborot vositalarida ko'rsatuvlar, videoroliklar ko'rsatilishiga qaramasdan hozirgi kunda fuqarolarning etiborsizligi oqibatida hamon yong'inlar sodir bo'lishi kuzatilmoqda.

Ushbu holatlarning oldini olish kundalik hayotimizda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish har bir fuqaroning burchi ekanligini unutmashimiz kerak.

O.KARIMOV,

Xonqa tumani FV bo'limi kichik inspektori, oddiy askar.

Bino va inshootlarni qurib foydalanishga topshirgunga qadar bo'lgan davrda necha-necha insonlarning mehnati bilan bir qatorda katta miqdorda moddiy mablag' ham sarf etiladi. Shunday ekan, qurilayotgan bino va inshootlarning uzoq yillar davomida insonlarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun loyihalashtirishda me'yoriy hujjatlarga amal qilinishi muhim.

TA'QIQLANADI



Yong'in xavfsizligini ta'minlash har birimizning vazifamiz, deb qaraydigan bo'lsak yangi, zamon talablariga mos va chiroyli binolarimiz albatta yillar davomida insonlarga xizmat qiladi.

Shuning uchun yangi qurilishni loyihalashtirishda birinchi o'rinda yong'in xavfsizligiga qat'iy rioya etish, qurilish jarayonida yong'in xavfsizligini ta'minlash va qo'shni binolarga zarar yetkazmaslik, ish joyida har xil chiqindilarni saqlash yoki ularni yoqish qat'iyan ma'n etiladi.

F.MAXMUDOV,

O'rtachirchiq tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari kapitan.

AEROPORTDA PROFILAKTIKA



"Urganch xalqaro aeroporti" MChJga ishga yangi qabul qilingan xodimlar bilan profilaktik uchrashuv o'tkazildi. Unda sodir etilishi mumkin bo'lgan yong'inlar va favqulodda vaziyatlarning oldini olish, u yuz berganda to'g'ri harakat qilish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan samarali foydalanish hamda yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish bo'yicha tushuntirish ishlari amalga oshirildi.

S.TOREMURATOV,

Xorazm viloyati FVB bo'lim boshlig'i, mayor.

I.MATYAKUBOV,

bo'lim inspektori, katta leytenant.

Navoiy viloyati FVB HFXO'M o'qituvchilari ishtirokida Karmana tumanidagi ixtisoslashtirilgan 25-maxsus maktab internati rahbar va xodimlari bilan "Ta'lim tashkilotlarida zilzila vaqtida to'g'ri harakatlanish qoidalarini o'rgatishga mo'ljallangan darsdan tashqari mashg'ulotlar tashkil etish" mavzusida o'quv seminar o'tkazildi.

O'QUV SEMINAR

Tadbirida "Zilzila va uning asosiy belgilari", "Zilzilaga qadar, zilzila vaqtida va zilziladan keyin to'g'ri harakatlanish va o'z xavfsizligini ta'minlash tartibi", "Zilzila oqibatida jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish" kabi mavzular yuzasidan ma'ruza qilindi.

B.QUVONDIQOV,

Navoiy viloyati FVB HFXO'M

katta o'qituvchisi.

O.RAJABOV o'qituvchi.



REGISTONDA O'QUV

"Sharq taronalari" xalqaro festivaliga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish davrida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va yong'inlarni bartaraf etishda shaxsiy tarkibni jangovar tayyorgarligini oshirish muhimdir.

Shu bois, Registon maydonida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Unda Favqulodda vaziyatlar davlat tizimi hududiy tizimi organlarining funksional vazifalarini bajarish yo'nalishlarini aniqlashtirish, avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni bajarishda moddiy-texnik ta'minot masalalarini hal etish, yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishdagi harakatlari kuzatildi.

Samarqand viloyati FVB axborot xizmati.



FM TADBIRI

Qashqadaryo viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi shaxsiy tarkibi tomonidan Koson tumanidagi 11-maktabgacha ta'lim tashkilotida "Zilzila sodir bo'lganda tarbiyalanadigan bolalar, ishchi va xizmatchilarning harakati" mavzusida namunaviy "Fuqaro muhofazadagi kuni" tadbiri tashkil etildi.

Unda favqulodda vaziyatlar ro'y berganda qanday harakat qilish bo'yicha tushunchalar berildi.

Tadbir so'nggida tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 45 ta MTT direktorlari bilan "Zilzilagacha, zilzila vaqtida va zilziladan so'ng aholini harakati" mavzusida o'quv seminari o'tkazildi.



I.MUQIMOV,

Qashqadaryo viloyati FVB HFXO'M

o'qituvchisi.

O.CHO'LIYEV,

markaz katta o'qituvchisi.

Namangan viloyati FVB boshlig'ining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i polkovnik Akmaljon O'rinboyev tomonidan daxldor tashkilotlar bilan birgalikda Namangan shahar hududidagi "Gulbog" MFYda profilaktik tadbirlar o'tkazildi.



TADBIR

Unda aholi yashash xonadonlari va ijtimoiy soha obyektlarida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati, shuningdek, favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning oldini olish bo'yicha o'rganish ishlari olib borildi.

Islomjon MELIBOYEV,

Namangan viloyati FVB axborot xizmati

yetakchi mutaxassisi.

Iskandan NURALIYEV,

Namangan shahar FV bo'limi boshlig'i

o'rinbosari, kapitan.



MAVSUMGA TAYYORGARLIK

Bog'dod tumani FV bo'limi tomonidan "Paxta-2024" mavsumiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha daxldor tashkilotlar bilan hamkorlikda Bog'dod paxta qabul qilish zavodida amaliy-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Ushbu tadbir davomida ishchi xizmatchilarga kerakli yo'riqnomalar berilib, tushuntirish ishlari olib borildi. Yong'in va boshqa yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish zarurligi tushuntirildi.

Muslimjon ERGASHEV,

Bog'dod tumani FV bo'limi boshlig'i, kapitan.

BEMINNAT YORDAMCHILAR

Buxoro viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi tomonidan otaliqqa olingan yoshlar tarkibidan kuchli zilzilada aholini qutqarish ishlariga jalb etish uchun volontyorlik guruhlari shakllantirilgan.

Har chorakda ularning kuchli zilzilada harakatlanish qoidalari va tartibi, jabrlanganlarni qutqarish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirib borilmoqda.



S.BOZOROV, B.ZIYODULLAYEV,
Buxoro viloyati FVB HFXO'M o'qituvchilari.

“To'raqo'rg'on neft bazasi” MCHJda, obyekt rahbariyati, fuqaro muhofazasi tuzilmalari hamda daxldor tashkilotlar ishtirokida “Namangan viloyati hududida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda bartaraf etishda hamkorlikdagi harakatlar rejasi” mavzusida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.



AMALDA SINALDI

Mashq davomida navbatchi dispetcherning maskanda shartli ravishda yong'in sodir bo'lganda harakatlari, navbatchi tomonidan ma'lumotni qabul qilinishi, obyekt fuqaro muhofazasi shtabi a'zolarini hamda tuzilmalarni, aloqador xizmatlarni belgilangan muddatda yetib kelishi hamda shartli ravishda yuzaga kelgan yong'in va boshqa favqulodda vaziyatlarni hamkorlikda bartaraf etish masalalari amalda sinab ko'rildi.

Abdunazar SOYIBNAZAROV,
Namangan viloyati FVB bo'lim boshlig'i.
Islomjon MELIBOYEV,
boshqarma axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.



KITOBLAR TOPSHIRILDI

Farg'ona davlat universitetida viloyat FVB tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 33 yilligi bayrami arafasida viloyat FVB boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik U.Babajanaov hamda O'zbekiston Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi raisi v.v.b Sh.Jumanovlar ishtirokida viloyat FVB ga birlashtirilgan otaliqqa olingan yoshlar ishtirokida “Rahbar va yoshlar” uchrashuvi o'tkazildi.

Uchrashuvda rahbarlar bugungi kunda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar va ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanish to'g'risida so'z yuritib, o'zlarining kasbiy bilim va tajribalari bilan o'rtoqlashdilar.

Uchrashuv so'nggida faol ishtirok etgan yoshlarga boshqarma boshlig'ining faxriy yorlig'i hamda badiiy, ilmiy va ommabob kitoblar tarqatildi.

Ahldin ALIJONOV,
Farg'ona viloyati FVB axborot xizmati rahbari,
kapitan.

Farg'ona viloyati FVB boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik Ulug'bek Babajanov, boshqarma Tezkor boshqaruv markazi boshlig'i podpolkovnik D.Dehqonov hamda bo'lim boshlig'i mayor J.To'xtasinovlar tomonidan Uchko'prik tumani FV bo'limida uchrashuv tashkil etildi.

UCHRASHUV

Tadbirda huquqbuzarlik va jinoyatchiliklar, jumladan, yo'l transport hodisalari, harbiy xizmatchi va xizmatchilarning tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni o'ynashi, ichkilikbozlik bilan bog'liq qonun buzilish holatlari, odob-ahloq qoidalariga amal qilmaslik hamda korrupsion holatlarning odini olish, har bir xodim bu kabi salbiy illatlardan to'g'ri xulosa chiqarishi kerakligi to'g'risida so'z yuritildi.

Tadbir davomida, rahbar xodimlarga, qo'l ostidagi har bir xodim bilan yakka tartibda



suhbatlarni doimiy o'tkazib borish, jamoada sog'lom muhitni shakllantirish, shaxsiy tarkibning dunyoqarashi, huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi immunitetni shakllantirish, tamagirlik va korrupsiya holatlarining oldini olishga qaratilgan davra suhbatlarini doimiy ravishda o'tkazib borish to'g'risida topshiriqlar berildi.

A.ARIPJANOV,
Farg'ona viloyati FVB
mas'ul xodimi, podpolkovnik.

Namangan viloyati FVBda bayram tadbirlari o'tkazilishi rejalashtirilgan maskanlardagi atraksionlarning texnik holatini o'rganish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan daxldor tashkilotlarni jalb qilgan holda tezkor yig'ilish bo'lib o'tdi.

TEZKOR YIG'ILISH



Unda, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 33 yillik bayramini munosib nishonlanishini ta'minlash maqsadida dam olish maskanlari va istirohat bog'laridagi atraksionlar, osma ko'priklar, dor yo'llari hamda yuk ko'tarish liftlar bilan bog'liq sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha tegishli tashkilot mas'ul xodimlari bilan birgalikda o'rganish va tekshiruvlar o'tkazilishi kelishib olindi.

Qahramon SATTAROV,
Namangan viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i,
kapitan.

QURLISHLARDA YONG'IN XAVFSIZLIGI

Nukus tumanida yashovchi fuqarolarga qulayliklar yaratish maqsadida, tuman hududidan turli aholiga xizmat ko'rsatish markazlari va yashash uylari qurish rejalashtirilgan.



Ushbu qurilish loyihalari tumanning “Diyxanama” MFY, “Ulgili makan” MFY, “Samanbay” OFY va “Aqmang'it” SHFY hududlarida qurilishlarning 1-bosqich ishlari davom etmoqda. Qurilish ishlari vaqtida binoning qurilish loyihasi bilan tanishish va yong'in xavfsizligi talablariga amal qilish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

D.REYPOV,
Nukus tumani FV bo'limi katta inspektori, kapitan.



TADBIR

Namangan viloyati Chust tumanidagi “Madaniyat va istirohat bog'i”da tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda qanday harakatlanish bo'yicha qo'shimcha tushuntirish ishlari olib borildi. Fuqarolar xavfsizligini taminlash favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida bog' hududidagi atraksionlar, savdo do'konlari, choyxonalar va boshqa binolar o'rganib chiqildi.

Oybek UMAROV,
Chust tumani FV bo'limi qism boshlig'i, katta leytenant.

YASHIL ENERGIYA



Farg'ona viloyati FVB va shahar, tuman FV bo'limlari tomonidan quyosh panellarini o'rnatilishi undan samarali foydalanilishi va “Yashil energiya” axborot tizimiga kiritilishiga alohida e'tibor qaratilib, aholiga tadbirkorlik subyektlari bilan o'rganish ishlari olib borilmoqda.

Sardor SOBIROV,
Farg'ona shahar FV bo'limi inspektori.

Farg'ona viloyati Qon quyish markazida "Bor mehrimiz senga, bolajon!" shiori ostida beg'araz donorlik aksiyasi o'tkazildi.

DONORLIK AKSIYASI

Mazkur aksiya doirasida viloyat FVBning bir guruh harbiy xizmatchilari ko'ngilli ravishda qon topshirib, aksiyada faol ishtirok etdilar.

Sizning topshirgan qoningiz turli baxtsiz hodisalar natijasida jarohat olib, qon yo'qotishi va qon quyishga muhtoj bemorlar, gematologik, onkologik kasalliklar bilan kurashadigan insonlar uchun o'ta muhimdir.

Aholidin ALIJONOV,
Farg'ona viloyati FVB
axborot xizmati rahbari, kapitan.



Namangan viloyati FVBda daxldor tashkilotlar mas'ul xodimlari ishtirokida tadbirkorlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

TADBIRKORLAR BILAN SUHBAT

Uchrashuvda viloyat hududidagi faoliyat yuritayotgan avtomobillarga gaz quyish shaxobchasi rahbarlari bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda shaxobcha bino va hududlarida yong'in xavfsizligini ta'minlash xususida so'z yuritildi.

Shuningdek, favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda tezkorlik bilan bartaraf etish yuzasidan tushuntirishlar olib borildi.

Bundan tashqari, shaxobchaga gaz to'ldirish maqsadida kelgan avtomobillar, mashina salonida bo'lgan yo'lovchilarni tushirish, yo'lovchilarni shaxobchani belgilangan joyida kutib turishlarini nazoratga olish yuzasidan kerakli yo'riqnomalar berildi.

Uchrashuv so'nggida tadbirkorlar sohaga oid qiziqtirgan savollariga mutaxassislardan javoblar oldilar.

Nozimjon RAHMONOV,
Namangan viloyati FVB bo'lim boshlig'i, kapitan.
Abdug'ani XADJAYEV,
viloyat FVB HFXO'M katta o'qituvchisi.

Ba'zan cho'milish qoidalariga rioya qilmaslik baxtsiz hodisalarga olib kelishini fuqarolar unutilib qo'yadilar. Ayrimlar spirtli ichimlik iste'mol qilib suvga tushadi. FVV ijtimoiy tarmoqlarida va boshqa ommaviy axborot vositalarida taqiqlangan joylarda cho'milmaslik zarurligini bildirishiga va tavsiyalariga qaramasdan turli ko'rinishdagi noxush holatlar sodir bo'lmoqda.

CHO'MILISH QOIDASI – UMR FOYDASI

O'z yaqinlaringizga tashvish va qayg'u olib kelmay desangiz, yosh bolalarning nazoratsiz cho'milishiga ruxsat bermang. Cho'milish ta'qiqlangan suv havzalarida, oqimi kuchli, tik qirg'oqli daryo, kanal, soylarda cho'milmang. Suzishni yaxshi bilmaydigan, jismoniy jihatdan quvvatsiz yoki charchagan, kasal yoki jarohatlangan, shuningdek, sovuq suvga tushgan yoki suvga tasodifan tushib ketgan inson cho'kib ketishi mumkin.

Abduroziq BO'RIYEV,
"NKMK" AJ va "Navoiyuran" DK OYOXTTEM
bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.

TUSHUNCHALAR BERILMOQDA

Qarshi tumani FV bo'limi tomonidan olib borilayotgan profilaktik tadbirlar davomida aholiga is-gazidan zaharlanish, havo-gaz aralashmasining chaqnashi va yong'inlarning oldini olish bo'yicha tushunchalar berilib, yong'in va texnik xavfsizligi qoidalarini o'zida aks ettirgan eslatma va bukletlar tarqatilmogda.

Shuningdek, ijtimoiy soha obyektlarida favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish maqsadida o'quv-mashqlari va texnika ko'rgazmalari namoyish qilinmogda.

B.BOZORBOYEV,
Qarshi tumani FV bo'limi P va NB inspektori,
katta leytenant.
B.JO'RAYEV,
bo'lim yetakchi inspektori.

UYDA YOLG'IZ...



So'x tumani "Novabot" MFY Xirmontepa ko'chasidagi xonadonlardan birida yashovchi fuqaroning farzandi uyda yolg'iz qulflanib qolgan.

Murojaat yuzasidan tuman FV bo'limi 16-YQQ xodimlari aytilgan manzilga yetib borishdi. Maxsus moslamalar yordamida eshikni ochishdi va farzand o'z onasiga sog'-salomat topshirildi.

Aholidin ALIJONOV,
Farg'ona viloyati FVB
axborot xizmati rahbari, kapitan.

DASTUR ASOSIDA

Qashqadaryo viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi tomonidan volontyorlarni kuchli yirik favqulodda vaziyatlar, xususan, kuchli zilzilalarda aholini qutqarish ishlari davomida zarur bo'lgan qoidalarga amal qilish, shuningdek, ularga qutqaruv ishlari tartibini o'rgatish, bu yo'nalishdagi bilimlarini oshirib borishga qaratilgan samarali ishlar bajarilayapti.

Jumladan, Qarshi shahridagi Volontyorlar markazining 25 nafar a'zosi bilan volontyorlarni kuchli yirik favqulodda vaziyatlar, xususan, kuchli zilzilalar oqibatlarini bartaraf qilishda ishtirok etishga tayyorlash bo'yicha 24 soatli dastur asosida malaka oshirish kursi tashkil etildi.

I.MUQIMOV,
J.RAHMONOV,
Qashqadaryo viloyati FVB HFXO'M
o'qituvchilari.

YANGI AVTOMASHINA TOPSHIRILDI



Chortoq tumani FV bo'limiga ATS-4,0-40 kamaz rusumli yong'in-qutqaruv avtomashinasi topshirildi.

Ushbu yong'in-qutqaruv texnikasi tumanda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarning oldini olish maqsadida olib borilayotgan targ'ibot ishlarini samaradorligini oshirish, sodir bo'lgan yong'inlarda tezkorlik bilan insonlarni hayoti hamda moddiy boyliklarini qutqarib qolishga xizmat qiladi.

Islomjon MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB axborot xizmati
yetakchi mutaxassisi.
Dilmurod ISABAYEV,
Chortoq tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari,
kapitan.

"CHODAK" STANSIYASIDA MASHG'ULOT

"Angren-Pop" elektrlashgan temir yo'lining "Chodak" stansiyasi hududida "Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarni tashish va saqlash bilan bog'liq sodir bo'lgan avariyalarda hududiy FVDT kuch va vositalarining hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida 9 bosqichdan iborat maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Ushbu mashg'ulot davomida "Qamchiq" temir yo'l masofasining Fuqaro muhofazasi kuch tuzilmalari maxsus kiyimlari, asbob-uskunalari, moddiy-texnik bazasi, individual himoya vositalari, aloqa vositalari, mavjud texnikalari, birlamchi o't o'chirish vositalari,

EKSTREMAL VAZIYATLARDA PSIXOLOGIK YORDAM

Ekstremal vaziyatlarda tezkor psixologik yordam kuchli stress holatidagi odamlarga ko'rsatiladi. Ekstremal vaziyatlarda amalga oshiriladigan psixodiagnostika ishlari o'zining farqli tomonlari bilan ajralib turadi. Vaqt yetishmaganligi uchun standart diagnostik protseduralarni qo'llash imkoniyati bo'lmaydi. Amaliy psixolog faoliyati ham favqulodda sharoitga qarab aniqlanadi. Ekstremal vaziyatlar ta'sirida psixologik jarohatni boshdan kechirganlarga yordam berishning asosiy tamoyillari:

- kechiktirib bo'lmazlik jarohatlanuvchiga yordam iloji boricha zudlik bilan ko'rsatilishi kerakligini bildirdi;
- hodisa joyiga yaqinlashish tamoyilini mazmuni shundaki, odatiy sharoitda va ijtimoiy qurshovda o'tkazishdan iborat;
- psixologik ta'sirning oddiyliги shuki, shikastlanuvchini jarohat joyidan olib ketishni, yegulik, dam, xavfsiz muhit va unga tinchlanish imkonini berish lozim.

Firuza OBLAKULOVA,
Navoiy viloyati FVB HFXO'M o'qituvchisi.

elektr himoya vositalari, ish qurollari va dori-darmonlar bilan ta'minlanganligi yuzasidan ko'rgazma tashkil etildi. RK va TMTE guruhi tomonidan sistoradan chiqayotgan KTEZMni bandaj yordamida sizib chiqishining oldini olish ishlari bajarildi. Evakuatsiya guruhi tomonidan jabrlanuvchilarni xavfsiz joyga olib chiqildi va tez tibbiy yordam xodimlariga topshirildi.

Maxsus avtomashina yordamida yerga to'kilgan KTEZM qoldiqlari tozalab olinib, maxsus ajratilgan joyga olib bordi. KTEZM to'kilgan hududga maxsus texnikalar yordamida qum to'kib chiqildi. Tarmoq SENM xodimlari tomonidan tuproq va suvlardan na'munalar olinib, mobil laboratoriya orqali na'munalarga aniqlik kiritildi.

R.XOLMATOV,
"Qamchiq" MQYOQB bo'linma boshlig'i,
leytenant.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА МАЪНАВИЙ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯНИНГ САМАРАЛИ ЙЎЛЛАРИ

Ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, мамлакатимиз истиқболи учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир, ташаббускор, шижоатли ёшларни тарбиялаш борасида алоҳида тизим яратилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида” ҳамда “Маънавият ва ижодни қўллаб-қувватлаш мақсадли жамғармасини ташкил этиш тўғрисида”ги қарорлари маданий ҳаётимиз равнақи, адабий-бадий тафаккур ривожини ва ёшлар тарбияси самарадорлигига хизмат қилади. Қарорда маънавий-маърифий ишлар тизи-

роитида маънавий тарбия иқтисодий ўсиш, илмий тафаккур, маърифий етуклик каби тушунчалар қаторида етакчи ўринга эга бўлиб турибди. Чунки айни шу соҳада юзага келаётган муаммолар бошқа соҳалардаги муаммолар ечимига бориб тақалади.

Маънавий тарбияни тўғри йўлга қўймай туриб, ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, жуғрофий ва экологик муаммоларни ҳал қилиб бўлмайди. Чунки бу муаммоларнинг келиб чиқиши умуммаънавий тарбияда юзага келган бўшлиқ, бепарволик билан боғлиқ.

Маънавият оқсаса илмий тараққиёт тўғри йўлдан чалғиши мумкин. Бугун дунёнинг фавқуллода истеъдодли олимлари, туғма қобилият эгалари соғлиқни сақлаш, атроф-муҳитга за-

навий жиҳатдан сергак бўлиб яшаш, ёшларни миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялаш, уларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш талаб қилинмоқда.

Ёшларда маънавиятни шакллантирадиган муҳим омил бу таълим-тарбия тизимидир. Илму-маърифатга, таълим-тарбияга инсон камолоти, миллат равнақининг асосий шартини деб қараш лозим. Шу сабабли мактаб, ёшларнинг таълим-тарбия масаласи давлат назоратида эканлиги Конституция-мизда белгилаб қўйилган. Қолаверса, мамлакатимизда ота-она меҳридан, уларнинг тарбиясидан маҳрум бўлган ва имконияти чекланган болаларга алоҳида эътибор, меҳр, ғамхўрлик кўрсатиб келинаётганлиги эътиборга мо-

ва ҳатто қизиқарли, жозибали шаклларда олиб борилади. Моддий манфаатдорлик ваъда қилинади. Ҳаётини тажрибаси етарли бўлмаган ёшлар бундай “жозоба”га тез маҳлиё бўладилар ва ўзлари билмаган ҳолда кимларнингдир тўрига илиниб қоладилар. Ёшларни бундай ҳалокатдан асрашда бадий адабиёт, маънавият ва маърифат тарғиботи халоскор кучга айланади. Юртимизда ташкил этилаётган янги давлат ва нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари, умумтаълим мактаблари, олий ўқув юртлари, нуфузли хорижий университетларнинг филиаллари, замонавий ИТ-парклар, маданият муассасалари ва спорт иншоотлари, мутлақо янги намунадаги таълим масканлари – “Президент мактаблари”, “Темурбеклар мактаби”, “Ижод мактаблари” бугунги глобаллашув шароитида рақобатга қодир бўлган етук кадрларнинг янги авлодини тарбиялашга хизмат қилмоқда.

Дарҳақиқат, “Тарбия” сўзини эшитганимизда, албатта, буюк мутафаккир аждодимиз Абдулла Авлонийнинг “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” асари кўз олдимизда намоён бўлади. Абдулла Авлоний мазкур асарида педагогика учун жуда зарурий билимлар ҳақида ҳикоя қилади. “Тарбия биз учун ё ҳаёт, ё мамот, ё нажот, ё ҳалокат, ё саодат, ё фалокат масаласидир” деган сўзларининг қанчалик тўғрилигига ҳаётимиз давомида кўп бора гувоҳ бўламиз. “Тарбия” сўзи арабча “роба” феълидан олинган бўлиб, “ўстириди”, “зиёда қилди”, “раҳбарлик қилди” ва “ислоҳ қилди” каби маъноларини англатади. Кўпинча “таълим” сўзи билан ёнма-ён келадиган бу атама ўзида инсоннинг оилавий, диний, миллий, умуминсоний қадриятларини мужассам этади. Демак, отанинг фарзандига қилган ҳадялари ичида энг яхшиси унга берган таълим-тарбияси экан. Ота-она ва тарбиячилар ёшлигиданоқ унга илм, одоб-ахлоқ қоидаларини ўргатишни бошлашлари ва албатта, унга ижобий тарафлама ўрнатиб олишлари зарур. Пойдевор қанчалик мустаҳкам бўлса, “комиллик” аталмиш бино ҳам кўркам ва мукамал яралади. Айниқса, ҳозирги техника ва технологиялар жадал ривожланаётган даврда мазкур масъулиятли вазирамизга етарлича вақт ажратиб зарурдир.

Бунинг учун олим учун илм манбаи, золим учун зулм манбаи бўлган интернетдан, ойнаи жаҳондан фақатгина яхшилик йўлида, нафли билимларни ошириш учун фойдаланишимиз лозим. Юзни қизартирадиган сериаллардаги уят сахналардан фарзандларимизни асрашимиз керак.

Энг муҳими, фарзандларимизга чиройли тарбия беришимиздан аввал, албатта, ўзимизга тарбия беришимиз керак! Аввало, ўзимизда илмларни, миллий қадриятларимизни, одобни, вақтни қадрлашни, хушмуомалаликни, сабрни, хурматни, адолатни, тартибни мужассам қилолсак, оилада фарзандларимизга энг гўзал ўрнатиб бўламиз. Шундагина тарбия ва одобини гўзал қилишга эришамиз.

Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.



мини тубдан такомиллаштиришнинг устувор йўналишлари сифатида, биринчи навбатда, “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари” ғоясини умуммиллий ҳаракатга айлантириш, оила, таълим ташкилотлари ва маҳаллаларда маънавий тарбиянинг узвийлигини таъминлаш вазифаси қўйилган. Бунда маънавий тарбия билан боғлиқ ишлар маълум ҳудудларда эмас, бутун мамлакатда яхлит олиб борилиши ва ҳамма жойда талаб даражасидаги самарага эришилиши кўзда тутилган. Шунингдек, маданият, адабиёт, кино, театр, мусиқа ва санъатнинг барча турлари, ноширлик-матбаа маҳсулотлари, оммавий ахборот воситаларида маънавий-ахлоқий мезонлар, миллий ва умуминсоний қадриятларнинг устуворлигига эришиш, геосиёсий ва мафкуравий жараёнларни мунтазам равишда ўрганиш, терроризм, экстремизм, ақидапарастлик, одам савдоси, нарқобизнес ва бошқа хатарли таҳдидларга қарши самарали ғоявий кураш олиб бориш вазифаси ҳам қўйилган.

Ҳаёт суръатининг тезлашуви деб аталаётган бугунги глобаллашув ша-

рар етказмаслик, инсон маиший турмушини яхшилаш муаммолари билан эмас, замонавий қурол-яроғлар яратиш билан шуғулланмоқдалар.

Таассуфки, инсон ақл-заковатининг юксак самараси бўлган интернет омборлари беҳаёлик, зўравонлик, босқинчи ва талончилик, зино ва бошқа иллатлар билан тўлиб-тошган. Матбуот хабарларига қараганда, бу тизимда ёшларни ўз-ўзини, бошқа гуноҳсиз одамларни ўлдиришга ўргатувчи сон-саноксиз сайтлар бор экан. Бундан англашиладиган хулоса шуки, эндиликда дунёни куч, бойлик, қурол-яроғ, дўқ-пўписа эмас, имон-эътиқод, фаҳм-фаросат, ақл-идроқ, таълим-тарбия билан мужассамлашган маънавият кутқаради.

Ҳозирги глобаллашув даврида турли бузғунчи ғояларнинг миллий қадриятларимизга таҳдиди, терроризм, экстремизм, “оммавий маданият”, трансмиллий ва кибер жинойтчилик, одам савдоси, нарқотропик таҳдидларининг хавфи борган сари кучайиб бормоқда. Мана шундай шароитда жамиятимизда маънавий тарбиянинг роли кескин ортиб бормоқда. Маъ-

лик. Бугун дунёда кечаётган мураккаб жараёнларни таҳлил қилишда уларга, энг аввало, маънавият кўзи билан қараш, ҳаётимизга кириб келаётган, турмуш тарзимизга синдирилаётган “қоида”лар кимга ва нимага қаратилганини аниқлаш, аҳоли турли қатламларига таъсирини ўрганиш, миллий манфаатларимизга, ҳаёт тарзимизга зид жиҳатларини очиб бериш, ва табиийки, зарур чоралар кўриш муҳим аҳамият касб этади. Демак, миллий тикланишдан миллий юксалиш йўлига ўтаётган Янги Ўзбекистон учун маънавий тарбия бугун ҳар қачонгидан кўра ҳам аҳамиятлидир.

Шуни ҳам қайд этиш жоизки, дунёда иқтисодий соҳада – ўзга минтақалардаги табиий бойликлар устидан назоратни қўлга киритиш, мафкуравий соҳада – турли халқларнинг асрлар давомида шаклланган турмуш тарзини ўз манфаатлари йўлида “ислоҳ” қилиш, ёшлар онги ва қалбини эгаллаш, уларни тўғри йўللardan чалғитиш каби носоғлом хатти-ҳаракатлар тобора кучайиб бормоқда. Бундай ҳаракатлар бир қарашда кўзга унча ташланмайдиган, деярли беозор бўлиб кўринадиган

ЙИРИК ФАЛОКАТ – ВАЙОНТ ФОЖИАСИ

1963 йил 9 октябрь куни кечқурун Венециядан 100 километр шимолда жойлашган Италиянинг Лонгароне шаҳри аҳолиси ғалати шовқиндан уйғонди. Уларнинг аксарияти ҳеч нарсани тушунишга вақт топа олмай, ўз уйларида вафот этдилар. Лонгароне тепасида жойлашган Вайонт ГЭСининг сув омборидан тошиб кетган миллионлаб кубометр сув бу шаҳарнинг ўзини ҳам, қўшни қишлоқларни ҳам ер юзидан ўчириб ташлади. Фожиага табиий офат сабаб бўлмаган, унинг бош айбдори инсоннинг эътиборсизлиги, геологик саводсизлиги, масъулиятсизлик ва билимсизлик эди.



Тоғдаги кичик Вайонт дарёсида гидроэлектростанцияни қуриш лойиҳаси 1920 йилларда италян фашистлари доҳийни Муссолини режими вақтида ишлаб чиқилган, аммо уни амалга ошириш турли сабабларга кўра, Иккинчи жаҳон уруши тугагандан кейингина мумкин бўлди. Тўғон қурилиши 1957 йилда бошланган ва катта кўламга қарамай, тез суръатлар билан давом этди. 1959 йилда асосий ишлар якунланди ва сув омборини тўлдириш бошланди.

Икки йил ичида Вайонт дарёси оқиб ўтадиган Пиаве водийсидаги тор дарада тизма бўйлаб баландлиги 262 метр ва узунлиги 190 метр бўлган улкан тўғон бунёд этилди. 1960-йилларнинг бошларида ушбу гидроэлектр станцияси дунёдаги энг баланд бўлиб, у муҳандислик дурдонаси, Италиянинг “иқтисодий мўъжизаси”, мамлакатни урушдан кейинги жадал қайта қуришнинг намунаси сифатида таассурот қолдирди.

Лекин кейинчалик маълум бўлишича, гидротехника иншоотининг бундай тез қурилиши қурувчиларнинг меҳнат иштиёқи билан эмас, балки кўпроқ иқтисодий сабаблар билан боғлиқ бўлиб чиқди. SADE Италия ҳукумати томонидан мамлакат энергетика саноатини миллийлаштириш арафасида, келажакда давлатдан тегишли субсидия олиш учун максимал ҳаракат қилгани аён бўлди. Шунга кўра, гидроэлектростанция том маънода инвестициялар билан “тўлдирилди” ва Монте Ток тоғи тез орада кўрсата бошлаган хавотирли белгиларга қарамай, улкан қурилиш давом этди.

1959 йилдаёқ Монте Ток ёнбағрида ёриқлар ва тупроқ кўчиши кузатилган. Геологик тадқиқотлар натижалари SADE компанияси учун ноҳуш тус олди: мутахассислар тоғдаги тупроқ ва бошқа жинсларнинг қулаб тушишини таъкидладилар, бу вақт масаласи эди. Бироқ бу қурилиш режасига ҳеч қандай таъсир кўрсатмади. Тўғон қуриб битказилди, шундан сўнг сув омборини тўлдириш бошланди, бу яна бир неча йил давом этди. 1960 йил ноябрига келиб сув сатҳи 190 метрга етди. Айнан шу ойда биринчи кўчки содир бўлди, шундан сўнг сув омборидан сув

яна қўйиб юборилди ва геологлар тоғ ичида содир бўлаётган жараёнларни қайта ўрганишга киришдилар. Ноҳуш фараз тасдиқланди: сув омбори Монте-Ток ёнбағирларини юваётгани маълум бўлди, ер ости сувлари даражаси сезиларли даражада кўтарилди, улкан кўчки хавфи муқаррар ҳодисага айланди. 1963 йил октябрь ойига келиб, Вайонт тўғонининг сув баландлиги 237 метрни ташкил этди, сув омборининг тошиб кетишига бор-йўғи 25 метр қолганди.

Ниҳоят, 1963 йил 9 октябрда тахминан соат 22:35 да қутилган даҳшат содир бўлди – сув омборига 260 миллион куб метр дарахт, тупроқ ва тошлардан иборат улкан кўчки соатига 110 километр тезликда оқиб келди. Натижада ҳажми 50 миллион куб метр бўлган сув тўғон четидан тошиб кетган. Бир неча ўн метр баландликдаги ўн миллионлаб куб метр сув, тош ва дарахтлар Лонгароне, Пираго, Ривалта ва Вилланова қишлоқларини ва улар билан бирга уларнинг 2500 га яқин аҳолисининг бошига етди. 350 оила бутунлай ҳалок бўлди. Даҳшатли оқим бор-йўғи етти дақиқа ичида бутун водийни текислаб ташлади.

Сув омбори асосан кўчки билан қопланиб қолган, бу эса ГЭСни ишлатишни мутлақо имконсиз қилиб қўйганди. Вайонт ҳали ҳам Пиаве водийсида турибди, аммо ҳозир фақат фожиага ўзига хос ёдгорлик сифатида кўрилади. Яъни, бу иншоот муҳандислик ишининг инқирози рамзи сифатида сақланиб қолди.

Лонгароненинг омон қолган аҳолисининг аксарияти Вайонт деб номланган шаҳарчага кўчиб ўтишди, бу шаҳар улар учун махсус қурилганди. Вайрон бўлган аҳоли пунктлари ўрнида янги қишлоқлар пайдо бўлди.

Айбдорларни жазолаш масаласига келсак, бу осон бўлмади. Италия ҳукумати ва SADE ўртасида узоқ ва мунозаралари тортишувлар бўлиб ўтди, бу бир нечта муҳандислар судланиб, қисқа муддатларга қамалгандан кейин жараён деярли тугади. Фалокатдан беш йил ўтгач, етакчи муҳандислардан бири айбдорлик ҳисси сабаб ўз жонига қасд қилганди.

ТАУЭР КЎПРИГИ ТАРИХИ

Ушбу кўприк Уэлс шаҳзодаси Эдуард ва унинг рафиқаси малика Александра томонидан очилган. XIX асрнинг иккинчи ярмида Лондон аҳолиси тез ўсди. Шаҳарнинг ғарбий қисмидаги порт ҳудуди гавжум эди. Ягона бўлган Лондон кўприги эса юкларга бардош бера олмади, тирбандликлар, ноқулайликлар вужудга келди. Шунинг учун янги кўприк қуришга қарор қилинди. 1876 йилда ўтиш жойи билан боғлиқ вазиятни ҳал қилиш бўйича кўмита дизайн танловини эълон қилди, унда 50 дан ортиқ иш тақдим этилди. Энг яхши иш архитектор Хорас Жонс томонидан ишлаб чиқилган осма кўприк лойиҳаси эди.

Афсуски, у ўз ишининг натижасини кўрмади, қурилиш бошланганидан бир йил ўтиб вафот этди. Унинг ўрнини архитектор Жон Вулф-Берри эгаллади. Бироқ Тауэр кўпригини ким қурганлиги сўралганда, тарихчилар Хорас Жонснинг исмини айтишади, чунки илк лойиҳа унга тегишли. Қурилиш 8 йил давом этди. 1894 йилда Тауэр Бриж қурилганида қироллик оиласи аъзолари иштирокида тантанали очилиш маросими бўлиб ўтди.

Минора кўприги иккига ажраладиган иншоот эканлигини ҳамма ҳам билвермайди, шунинг учун бу масала бўйича тез-тез қизгин баҳс-мунозаралар бўлиб туради. Ушбу структура ҳафтада бир неча марта махсус жадвалга мувофиқ ўрнатилади. Тауэр кўприги расмий веб-сайтида жадвал ҳақида ишончли маълумотлар мавжуд.

1952 йилда янада кескин вазият юзага келганди. Номаълум сабабларга кўра кўп-

риқни очиш сигнали берилмаган, бироқ ўша пайтда унинг ёнидан 20 нафар йўловчиси бўлган автобус ҳаракатланаётган эди. Хайдовчи Алберт Гантон кўприк очилиши бошлаганини кўриб, тезда қарор қилди. У газ педалини бор кучи билан босиб, кўприкнинг нариги томонига отилди. Гантон йўловчилар ҳаётини сақлаб қолгани учун 10 фунт стерлинг миқдорида мукофот ҳам олди. Авваллари кўприк кунига 50 марта иккига ажраларди. Ҳозир бир ҳафтада 4 – 5 марта бу иш амалга оширилади. Кўприкни бир кунда 20 мингдан ошиқ автомобиль кесиб ўтади.

Кўприк лойиҳасини тасдиқлашда қисмларни улаш қанча давом этиши ҳақидаги савол ҳал қилувчи масалалардан бири эди. Ўн тўққизинчи асрнинг охирида Темзада транспорт жуда тирбанд эди ва кўприк соатига бир неча марта очиларди.

Кўприкнинг умумий узунлиги 244 метрни ташкил қилади. У иккита оралиқ металл таянчга таянади, улар Темзанинг пастки қисмидаги ишончли пойдеворга ўрнатилади. Ҳар бир таянч қисмининг баландлиги 65 метрни ташкил қилади. Коррозиядан ҳимоя қилиш учун таянчлар тош билан қопланган ва готик миноралар шаклида қурилган. 1977 йилдан 2010 йилгача реставрация қилинганга қадар кўприк қизил, оқ ва кўк рангга бўялган. Кейинчалик унинг ранглари кўк ва оққа қайта тикланди.

Кўприкни кўтаришда пиёдаларга ноқулайлик туғдирмаслик мақсадида минораларда спираль зинаполяр ва лифтлар қурилди. Улардан бири фақат кўтарилиш учун ишлаган, иккинчиси – тушиш учун. Кўприк тўлиқ очилганда ҳам пиёдалар галереяси бўйлаб юриш мумкин бўлади.

Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.



Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқулодда
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир
Азамат СУЮНОВ

Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти – 15.00
Топширилди – 15.00

Навбатчи:
А.ҚОБИЛОВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди
ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри
таҳририят нуқтаи назаридан
фарқланиши мумкин.

Газетадан олинган материаллар
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва
ахборот агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-сон рақам
билан рўйхатга олинган
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Юнусобод тумани,
Ш.Рашидов кўчаси, 17-А-уй.
Тел.: (71) 212-69-56
Телеграм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташкilotлар учун - 382

Газета “BUSINESS PRINT DESIGN”
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №165
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.
Адади - 9850 нусха